

KICHIK YOSHDAGI BOLALAR UCHUN CHET TILLARI (INGLIZ TILI)NI O'RGATISHNING FOYDALI TOMONLARI

Ilmiy rahbar: Karimova Umida

SamDCHTI o'qituvchisi

Shahrizoda Botirboyeva

SamDCHTI, Ingliz tili I fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarning maktabgacha ta'lim sistemasida ingliz tilini o'rgatishning foydali tomonlari va maktabgacha ta'lim tizimida yosh avlodga samarali ta'lim metodlaridan foydalanib ularni kelajak uchun foydali jihatlari haqida so'z yuritilgan. Bundan tashqari yoshlikda o'rganilgan tilning kelajakdagi natijalari haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: Ta'lim sistemasi, samarali ta'lim, samarali metod, foydali jihatlari, kelajakdagi natijalar.

Vatanimizda prezidentimiz tashabbusi bilan oxirgi yillarda chet tilarini o'rganish, o'rgish va ular ustida olib borilayotgan turli xil isohotlar aholi uchun yangidan yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Jumladan, 2018-yil 30-sentabrdagi qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori va 2014- yildan boshlab yurtimizning barcha maktablarida ingliz tilini 1-sinfdan boshlab o'rgatilishi buning yaqqol misolidir.

So'ngi yillarda maktab, litsey, kasb-hunar kollejlarida hatto maktabgacha ta'lim tizimida ingliz tili muhim fan sifatida o'rganilmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimi bu har bir bolani maktabga tayyorlash, qobiliyatlarini namoyon etish va albatta o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga katta yordam beradi. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim – yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasining dastlabki bosqichi hisobladi. Bu paytda har bir bolani ta'lim olishga yangi narsalarni o'rganishga jalb qilish zarur, chunki psixologlarni tadqiqotlariga ko'ra bola bu yoshda hamma narsaga qiziquvchan va biror narsa haqida ma'lumot bersangiz tez va oson o'rganib qoladi. Boshqa tarafdin boshqa tillarini o'z tili bilan birgalikda o'rgansa foydaliroq bo'ladi. Yosh bolalar kattalardek aniq va uzoqni o'ylab fikrlamasligi sababli ular faqat o'sha payt uchun yoki yon atrofdagi bolalardan o'tib ketish uchun o'rganishadi. Bu davda bog'cha bolalarga ingliz tilini o'rgatish ularga maktabga borishga bu tilga kirish qismini aglatadi. Chet tillarini o'rganish, shuningdek shaxsning tushinish qobiliyatiga ham bog'liq. Boshqa tillarni bolalarga o'rgatishda juda sinchkovlik bilan yondashish zarur. Misol uchun ingliz tilini oladigan bo'lsak dars berayotgan o'qituvchi darsxonada xuddi shunday muhit yaratishi, va yoshlariga mos qo'llama bilan taminlashi, yosh bolalar uchun

asosan rasmi qiziqarli ma'lumotlardan foydalanish bolalarning tasvvurini kengaytirish va diqqatini jamlashga yordam beradi.

Bolalar tez o'rganishadi lekin tez unitishadi shuning uchun o'rgatilyotgan narsalar haqida bir necha marotaba nutqda takrorlash va o'sha mavzuga oid tarqatma materilar orqali yoki qiziqarli o'yinlar tashkil etish samarali usul hisoblanadi . Yana bir foydali bo'lgan usullardan biri rasmi kitoblar, yoshiga mos qo'shiqlar ,kitoblar sherlardan keng qavrovli yo'sinda foydalanish. Yosh bolalar tabiatan yorqin va chiroyli narsalarni yoqtirishadi va bu narsalar bilan ularning e'tiborini tortish oson . Bu degani maktabgacha ta'lim muassasidagi yoshlar o'qishga qiziqtirish muhimdir.

Sistematik o'qishga layoqatli bo'lgunga qadar bolalar tayyorlov bosqichi ya'ni bog'cha davrini bosib o'tadi . Bu bosqichda chetdagi barcha kishilarning bolaga nisbatan yangi talablari asta sekin uning "o'zining dasturiga" aylanishi lozim. Bog'cha yoshi davrining oxiriga boribgina, bolla kattalar tomonidan ishlab chiqilgan chet tillari metodikasini o'qiy boshlaydi va maktabdagi muhitga amal qila boshlaydi. L.S Vigotskiyning fikriga ko'ra yosh davri ta'lim dasturi:

- 1) Bolaning maktab dasturiga yaqinlashtirishi, uning bilim doirasini kengaytirishi, predmeti ta'limga tayyorlashi ;
- 2) Bolaning o'zining dasturi bo'lishi , uning qiziqishi va ehtiyojlari;

Dunyo bo'yicha nazar tashlaydigan bo'lsak ingliz tili hozirda dunyo tili hisoblanadi va buni yoshlik davridan o'rganish hamma tarafdin foydali. Bolaning duyo qarashi, tasavvuri , kengayishiga sabab boladi . Bu borada bobolarimiz ham aytishganki , - "Kim nechta tilini bilsa u shuncha shaxs hisoblanadi" .

Til bilan shug'illanish va til bilan tanishish orasidagi farqlar

Gap aynan bolalarning chet tillaridan biriga(ko'pincha ingliz tili) o'rgatish haqida ketganda, ota -onalar bu narsalarni bilishi kerak. Ko'pchilik zamonaviy o'qituvchilarning fikricha 5 yoshdan kichik bolalar bilan til bo'yicha shug'illanishning foydasi yo'q . Mashg'ulotlardan ma'lumbir darjadagi diqqat- e'tibor va berilgan vazifalarni ketma-ket bajarish ko'zda tutiladi.

Kichkina bolalarga esa buning nafaqat qizig'i yo'q va og'ir , balki aynan chet tillariga o'rgatishni erta boshlash kelajakdagi uning bu tilni o'rganish istagi va qiziqishini so'ndirish mumkin . Til bilan tanishishni iloji boricha ertaroq boshlagan ma'qul . Ruxshunoslar tomonidan kichkina bolalarning yon-atrofdin eshitganlarining hammasini qabul qilishlari va keyinchalik gaplarni tuzishda tanish bo'lgan tovushlar birikmasidan foydalanishlari isbot qilinggan.

Farzandingiz 1.5-2 yoshda bo'lsa-da uyingizda haligacha chet tilidagi so'zlar hech qachon aytilmagan bo'lsa ham siz bundan xavotirlanib o'tirmang . Bolalar 3-4 yoshgacha juda tez qabul qiluvchan bo'lishadi . Va til bilan tanishishni bunday sust holatda ham xohlagan vaqtda boshlash mumkin .

Shuning bilan birga boladan aniq biror narsani- takrorlash, jumlani to'g'irlash talaffuz qilishni talab qilish noto'g'ri. Agar u xohlasa so'zlarning , qaysidir elementlarini yoki hatto alohida tovushlarni takrorlasa ha mayli, chunki bularning hammasi foyda bermaydi.

“Bolalar ingliz tilini o'rganishi nima uchun muhim?” , -degan savolga qisqacha javob beramiz:

Bolalar uchun ingliz tili o'rganish muhim chunki ingliz tili ularning boshqa tillarni ham o'rganishlarini osonlashtiradi.

Ingliz tilini bog'cha yoshidan o'rganish yosh avlod uchun kelajakdagi kasblari uchun arzon va szmarali bo'lishini ta'minlaydi . Bu farzandalingizning hukumat , xoriydagi kompaniyalar yoki o'z kasblarida unib o'sib chiqish uchun tayyor bo'lishga imkon beradi

Xulosa o'rinda shuni aytish joizki, bolalarni boshqa tillarni o'rgatishga e'tibor qaratsa ularning kelajakda mahoratli mutahassis bo'lib yetishiga o'z hissamizni qo'shgan bo'lamiz . Shu sababli ilmiy yo'nalishni ham kundalik hayotga qo'shish va qiziqishlarga aylantirish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentabrdagi “ Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida “ gi PQ-3955 – sonli qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prerziodentining 2019 yil 7- maydagi “ O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tiziminmi 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” gi PQ 4312 sonli qarori.
3. Umida K. The Role of Teaching Compounds According to Types of Speech in Constructivism //Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – T. 8. – C. 4-9.
4. Umida K. The ways of using constructivism to teaching phraseological units and vocabulary for efl //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022.T.3.–№.4.– C.1-6.Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/1325>
5. Umida, Karimova. "The Role of Teaching Compounds According to Types of Speech in Constructivism." Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching 8 (2022): 4-9. Retrieved from ISSN: 2795-739X.
6. Ochilovna K. U., Sameyevna M. Z. IMPROVING SPEAKING SKILL WITH THE HELP OF MODERN TECHNOLOGIES //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 9. – №. 12. – C. 367-369.